



SINF DAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISH

Pishaddinova Shaxnoza Baxitbay qizi

Nukus DPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

***Annotatsiya:** Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning tahminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** muallif, sinfdan tashqari mashg'ulot, asar.*

Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari o'qishdarslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari o'qish darslari 1-2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17—20 daqiqasi ajratiladi. Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qizi-qishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularni kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bunda o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchii o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning tahminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, "Tez aytish", "Topishmoqlar topish", "Ifodali o'qish", "Maqollar aytish musobaqasi", „Ertak



to‘qish”, „Bilimdonlar anju-mani” kabi ko‘rik tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo‘yicha savol-javoblar uyushtirish, o‘yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O‘qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o‘tkazish, „Kitob hafialigi” tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi. Sinfdan tashqari o‘qish sinfdan o‘qish bilan uzviy bog‘liq ravishda uyushtiriladi. Sinfdan o‘qish STO‘ uchun zarur bo‘lgan o‘qish malakalarini shakllantiradi, o‘quvchilarning o‘qigan asarini tushunishga o‘rgatadi, lug‘atini boyitadi. Sinfdan tashqari o‘qish qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfdan o‘qish - hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o‘qish esa hayotning o‘zidir. Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qishga mo‘ljallangan „Kitobim - oftobim" (1-3-sinflar uchun) nomli qo‘llanmalar ham chop etilgan.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishga kichik yoshdagi o‘quvchilarni ona tilini puxta o‘zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta‘lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adaboyoti va xalq o‘gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashdan iboratdir. Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslaridir. Sinfdan tashqari o‘qish darslari erkin dars hisoblanadi; bunday maxsus darslarda bolalarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodi rivojlanadi; faol kitobxonlar ushuncha zarur ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma – xil bo‘ladi. Har bir dars o‘qituvchi bilan o‘quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma – xillikka, hayotiylikka erishilsa, o‘qituvchi o‘z sinfidan shunchalik katta muvaffaqiyatga erishadi. Shularga qaramay, sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish ushuncha ma‘lum talablarga bo‘ysunadi. Sinflar tashqari o‘qishning asosiy vazifalari:

1. O‘quvchilarning o‘qish va nutq o‘stirishdan olgan bilim va hosil qilgan malakalarini mustahkamlash, takomillashtirish va ularni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash.
2. O‘quvchilarning sinfdan olgan bilimlarini kengaytirish.
3. O‘quvchilarni kutubxonadan kerakli kitobni, kitobdan esa kerakli ma‘lumotni topishga o‘rgatish.
4. O‘quvchilarning kitobga va bilim olishga havasini tarbiyalash.
5. O‘quvchilarning kitob bilan mustaqil ishlash malakasini



takomillashtirish.

Sinfdan tashqari o'qish darslari ma'lum talablarga bo'ysunadi:

1. Har bir darsda bolalar o'qigan kitoblar hisobga olinadi. Ular o'qigan yoki o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'qigan kitoblari haqida qisqacha gapirib beradi. O'qituvchi darsda o'zaro fikr almashish holati yaratadi, darsdan tashqari vaqtda ham fikr almashish davom etishi mumkin.

2. Har bir darsda yangi kitoblar tavsiya qilinadi. Tavsiya shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatib, to'g'ridan – to'g'ri tavsiya qilish, sinfda kishik tematik yoki muallifga tegishli ko'rgazma tashkil etish, o'quvshilarni qiziqtirish ushuni tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasm ko'rsatish, diapozitiv yoki parchasini namoyish qilishdan iborat.

3. Har bir darsda o'quvchilar hikoya, ertak, she'r o'qiydilar; hajmi kichikasarni yaxlit, hajmi katta bo'lsa, ikki – ush dars davomida o'qiydilar, sinfdagi barcha o'quvchilar o'qigan kitobidan biror parchani o'qib beradilar. Ko'proq ovoz chiqarib o'qiydilar, bundan tashqari, darsda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o'qilgan asarni suhbat, ya'ni o'qituvshi savoliga javob berish, erkin hikoyalab tahlil qilish elementi bo'ladi. Erkin hikoya qilish uchun savol umumiy tarzda beriladi: «Senga nimalar juda ham yoqdi?», «Bu kitob haqida sen nimalarni ayta olasan?» kabi tahlil jarayonida bolalarni axloq-odob ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat beriladi.

5. Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qiladi:

muallif haqida ma'lumot topish, kitob nomiga qarab nima haqida ekanini bilish, ko'rgazma tuzish, kitob haqida taqriz yozish yoki kitobxon kundaligi yuritish kabi.

6. Har bir dars kirish suhbatini bilan boshlanadi va sinfda o'qish darslarida qo'llanadigan barcha usullardan foydalaniladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida an'anaviy usullar (qayta hikoyalash, lug'at ishi, suhbat kabi)dan zarur o'rinlardagina foydalanish tavsiya etiladi, lug'at ishi bunday darslarda yordamshi rol o'ynaydi: ayrim qiyin so'zlar tushuntiriladi, o'quvshilar diqqati esda saqlab qolish lozim bo'lgan aniq, qulay nutq oborotlariga qaratiladi. Barsha qiyin so'zlarni tushuntirish imkoni bo'lgani ushuni bolalar tegishli bettagida berilgan ayrim so'zlar izohini o'qishga o'rgatiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qayta hikoyalashning ijodiy shakllari bo'lgan o'qilganlarga so'z bilan yoki grafik rasm chizish, aplikatsiya, adabiy – muzikali kompozitsiya, rasmlar, portretlar, diafilmlardan foydalanishga sharoit yaratadi.



O'qilganlar asosida insho, gazetaga maqola yozish kabi ijodiy ishlardan ham foydalanish mumkin.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida suhbat o'qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo'llaniladi; suhbat elementlari o'qilgan asardan asosiy mazmuni ajratish ushuni, voqealar izshilligini, bo'lgan vaqti va o'rnini, bog'lanishini belgilashga yordam beradi. Suhbat ushuni savol tuzishda o'quvchilarning mustaqilligi, hayotdan, o'qilgan boshqa kitoblardan qo'shimcha javob berishi hisobga olinadi. Boshqa darslardagi kabi, bunday darslarda ham kirish suhbatlari, umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbatlar bo'ladi. Ko'pgina sinfdan tashqari o'qish darslari umumlashtiruvchi darslar kabi quriladi. Masalan, «Vatan haqidagi kitoblar» mavzusidagi sinfdan tashqari o'qish darsi umumlashtiruvchi dars kabi uyushtiriladi. Odatda, bunday darslarning qurilishida umumlashtirish elementlari bo'ladi. Metodik vositalarni tanlash, dars qurilishi (asosiy mazmuni ajratish, taqqoslash, xulosalash, qo'shimcha materialni qo'shishni talab qiladigan savollar kabi) umumlashtirishning vazifasini belgilaydi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tatbiq etish ham yordam beradi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy musobaqa (bir mavzu ustida savol-javob o'yini), eng yaxshi insholar, rasmlar, topishmoq topish, bellashuvlar o'tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoa bilan yoki yakka ravishda ertak to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvshilarning chuqur ma'noli gap (hikmatli so'z)lari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda «Hazil minuti», «5 sekund o'ylash ushuni», «Topishmoqlarni top», «Bilimdonlar klubi» kabi qiziqarli mashg'ulotlarni doimo o'tkazib turadilar. Sinfdan tashqari o'qish darslarini o'tqazish rejasini o'quv yilining yarmiyoki butun o'quv yili ushuni tuzib, darslar sistemasini belgilab olish tavsiya etiladi. Bunday planlashtirish darslarni xillashtirishga, ularning izshil va o'zaro bog'liq bo'lishiga, shuningdek darslarda ish turlarini taqsimlashga, bolalarga ta'lim tarbiya berish, bayramlar ulug' kunlar, fasllarga mos ravishda mavzularni taqsimlashga imkon beradi. Sinfdan tashqari o'qish darslarining tizimi dasturda belgilab berilgan bilim, ko'nikma va malaka bilan o'quvchilarni qurollantirishga qarab belgilanadi.

Bunday darslar sistemasini ishlab shiqishda kishik yoshdagi o'quvchilarda mustaqil o'qish malakalarini shakllantirish bosqishlarini ajratish muhim ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dauletbaevich, A. X. (2023). THE ARTISTIC INTERPRETATION OF FEMALE PSYCHOLOGY IN THE NOVEL. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 117-122.
2. Dauletbaevich, A. K. (2022). THE COMPARATIVE VIEW OF RELIGIOUS AND SECULAR THINKING IN THE SYSTEM OF IMAGES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 316-321.
3. Abdullaev, K. D. (2021). Artistic and aesthetic function of chronotops in the structure of the novel. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1173-1179.
4. Buranova, B. (2023). The Modulation and Generalization Method in the Process of Translation from Related Languages. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10(6), 368-372.
5. Buranova, B. (2023). THE NOVEL "MA'SUMA" BY ISAJON SULTAN INCLUDES AUTOBIOGRAPHICAL ELEMENTS. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ* (pp. 170-171).
6. Darmenov, J., & Qalbaev, E. (2023). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(6).
7. Djurakulova, G. S. (2019). Uzbek folklore traditions and his presence. *Научные горизонты*, (8), 3-7.
8. Shukurova, G. H. (2022). The Role of Matyakub Kushjanov in Uzbek Literal Studies. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(11), 464-468.
9. Shamaksudova, S. K. (2023). Scientific and Theoretical Foundations of the Concept of Media Text in Media Linguistics. *International Journal of Social Science Research and Review*, 6(4), 551-555.
10. Khidoyatovna, S. S. (2022). NEW APPROACHES IN THE STUDY OF MEDIA TEXTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 368-372.
11. Kamil, T., & Maqsud, E. (2023). Principles of Differentiation of Motif and Plot. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(4), 105-115.
12. Kalbaevna, K. Z. (2022). INTEGRATED EDUCATION AS A MEANS OF DEVELOPING SOCIAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
13. Kurbaniyazova, Z. K. (2021). The role of social pedagogy in the professional training of future teachers. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 23-26.